

MALAY JAMIYATIDA OILA INSTITUTINING KUNDALIK TURMUSHDA
IJTIMOIY-MADANIY AHAMIYATI**Islomova Sevinch***ToshDSHU 2-kurs “Filologiya” yo‘nalishi**Aleegria006@gmail.com**+998944804994**Ilmiy rahbar: ToshDSHU malay tili o‘qituvchisi***Toshpo‘latova Zarnigor**

Annotatsiya: Malay jamiyatida oila instituti kundalik hayotning muhim ijtimoiy-madaniy tayanchi hisoblanadi. Oila qadriyatlarining saqlanib qolishi avlodlardan avlodga o'tib kelayotgan urf-odatlar, an'analar va axloqiy me'yorlar bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur maqolada malay xalqining kundalik turmushida namoyon bo'ladigan an'anaviy qadriyatlar, ierarxik murojaat shakllari hamda jamoaviylik tamoyillarining o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu omillarning oila mustahkamligini ta'minlash va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati yoritiladi.

Tayanch so‘z va iboralar: malay jamiyati, oila instituti, oila qadriyatlari, urf-odatlar, jamoaviylik, ijtimoiy-madaniy ahamiyat, kundalik turmush, an'analar, avlodlar davomiyligi, ierarxik murojaat shakllari.

Abstract. The family institution in Malay society serves as an important socio-cultural foundation of everyday life. The preservation of family values is closely connected with customs, traditions, and moral norms transmitted from generation to generation. This article analyzes the traditional values reflected in the daily lifestyle of the Malay community, as well as the role of hierarchical forms of address and the principles of collectivism. Furthermore, the study highlights the significance of these factors in maintaining family stability and regulating social relationships.

Keywords: Malay society, family institution, family values, customs, collectivism, socio-cultural significance, daily life, traditions, generational continuity, hierarchical forms of address.

Аннотация. Институт семьи в малайском обществе является важной социально-культурной основой повседневной жизни. Сохранение семейных ценностей тесно связано с обычаями, традициями и нравственными нормами, передающимися из поколения в поколение. В данной статье анализируются традиционные ценности, проявляющиеся в повседневной жизни малайского народа, а также роль иерархических форм обращения и принципов коллективизма. Кроме того, рассматривается значение данных факторов в обеспечении устойчивости семьи и регулировании общественных отношений.

Ключевые слова: малайское общество, институт семьи, семейные ценности, обычаи, коллективизм, социально-культурное значение, повседневная жизнь, традиции, преемственность поколений, иерархические формы обращения.

KIRISH

Malayziyada oila instituti jamiyat taraqqiyotining asosiy tayanchlaridan biri sifatida e'tirof etilib, bu yo'nalish davlat miqyosida alohida nazorat qilinadi. Mazkur tizim faoliyati asosan Ayollar, oila va jamiyat taraqqiyoti vazirligi hamda Milliy aholi va oilani rivojlantirish boshqarmasi tomonidan boshqariladi. Oila mustahkamligini saqlash va oilaviy qadriyatlarni rivojlantirish maqsadida mamlakatda 2026-2030 –yillarga mo'ljallangan Milliy oilaviy mehr-shavqat siyosati joriy etilgan. Malayziya oila institutining o'ziga xos jihatlari, huquqiy asoslari va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi bir qator muhim omillarda namoyon bo'ladi.

Malayziyada oilaviy munosabatlar mamlakatning ko'p milatli va ko'p dinli tuzilishidan kelib chiqib, 2 xil huquqiy tizim asosida tartibga solinadi. Musulmon aholining nikoh, ajrim va meros masalalari shariat qonunlari orqali ko'rib chiqilsa, g'ayrimusulmonlar uchun fuqarolik qonunchiligi amal qiladi. Davlat oilaviy barqarorlikni ta'minlashda K.A.S.I.H dasturiga alohida e'tibor qaratadi.

K (Kasih sayang) – Mehr-muhabbat va oilaviy rishtalarni mustahkamlash.

A (Ahlak) – Ma'naviyat, axloq va diniy qadriyatlarni singdirish.

S (Sehat&Selamat) – Sog'liqni saqlash va oila xavfsizligi.

I (Ilmu) – Oila va ota-onalik bo'yicha bilimlar (raqamli dunyo muammolariga qarshi).

H (Harmoni) – Oila a'zolari o'rtasidagi totuvlik va hamjihatlik.

Ushbu tizim mehr-muhabbat, axloqiy qadriyatlar, sog'lom turmush, bilim va oilaviy totuvlik tamoyillariga asoslanadi. Shu bilan birga, hukumat tomonidan nikohdan oldingi tayyorlov kurslari, oilaviy maslahat markazlari hamda ota-onalar uchun ish va oila muvozanatini saqlashga qaratilgan dasturlar tashkil etilgan. Yoshlar uchun esa reproduktiv salomatlik va psixologik yordam ko'rsatuvchi maxsus markazlar faoliyat yuritadi.

Malay jamiyatida oila o'zi oddiy yashash muhiti sifatida emas, balki insonning tarbiyasi, jamiyatdagi o'rni va kundalik hayot tarzini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy instituti sifatida qaraladi. Ayniqsa musulmon malaylar orasida oilaviy qadriyatlar muqaddas tushuncha hisoblanib, ular turmush-tarzi va madaniy an'analarda namoyon bo'ladi. Bu holatni malay xalqining kundalik hayoti bilan bog'liq turli amaliy misollar orqali ko'rish mumkin:

Malay oilasida yoshga qarab hurmat ko'rsatish va oilaviy ierarxiya kundalik hayotning qat'iy qonunidir (Cultural Atlas, 2026). “Salam” va “Cium tangan” (qo'l o'pish) odobi “bersalam” deb ataladi. Bu oddiy ko'rishish emas, balki kichiklarning kattalardan duo va Baraka olishni ifodalovchi marosimiy hurmat shaklidir. Yoshi kichik odam ikki qo'llab Yoshi katta odamning o'ng qo'lini ushlaydi va yengil tazim qilib, kattaning qo'l kaftining orqa qismini o'zining burun yoki peshonasiga tekkizadi. Ba'zida lab bilan ham yengil tegib o'tiladi. Bu harakat orqali kattalarning hayotiy tajribasi hamda ularning yoshiga nisbatan chuqur hurmat ifodalanadi. Bu qoida malaylarning bolalik davridan boshlab o'rgatiladi. Ammo farzandlar balog'at yoshiga (Baligh) yetgandan so'ng, islom qonun-qoidalariga ko'ra faqatgina o'z mahramlari (ota-onasi, bobo-buvisi, amaki-tog'alari) hamda bir jins vakillari bilan shu tarzda ular o'zaro hurmat asosida salomlashadilar.

Qo'l o'pib salomlashilgandan so'ng, yosh kishi o'z qo'llarini ko'ksiga qo'yadi. Bu harakat "siz mening qalbmidasiz" degan ma'noni ifodalaydi.

Malay tili va madaniyatida ijtimoiy ierarxiya, ya'ni yoshga asoslangan pog'onalar tizimi juda qat'iy shakllangan. O'zbek madaniyatiga o'xshash tarzda, oilada har bir yosh toifasining o'ziga xos nomlanishi va murojaat shakllari mavjud.

"Abang" "Kakak": "Abang" – o'zidan katta bo'lgan akalarga, "Kakak" – opalarga nisbatan ishlatiladi. O'zining oilasidan tashqarida ham o'zidan katta bo'lgan odamlarga nisbatan ishlatiladi (bu xuddi o'zimizda "aka, opa" singari hurmat ma'nosida ishlatiladigan so'zlardir)

Oiladagi tug'ilish tartibga asoslangan ierarxik tizim: Malay oilalarida farzandlar oiladagi tug'lish ketma-ketligiga qarab maxsus nomlar bilan ataladi. Misol uchun:

to'ng'ich farzand (aka yoki opa) – "Long" (Sulong to'ng'ich so'zidan)

ikkinchi farzand – "Ngah" (Tengah – o'rtancha so'zidan)

kenja farzand – "Su" yoki "Bong" (Bongsu – kenja so'zidan (Tham,1977)

Malay jamiyatida o'zidan katta bo'lgan odamlarning ismini yolg'iz o'zini aytib chaqirish taqiqlangan. Agar biror yoshroq bola amakisini yoki akasini shunchaki ismini aytib chaqirsa (Masalan: Ahmad akani "Ahmad" desa) uning mahalladagilari yoki qarindoshlari bu ishini ota-onaning farzandiga tarbiya bera olmaganligi, ya'ni "Kurang Ajar" ekanligi deb qabul qiladi (Tham,1977). Malay aholisi doimokattalarga murojaat qilayotganlarida ismining oldidan albatta ijtimoiy status qo'shadilar: PakCik (amaki\tog'a), MakCik (amma\xola), abang (aka) yoki kakak (opa). Begona keksa odamga ham "PakCik" (amaki) deb e'zozlashadilar. Malayziyada bu murojaat shakllari insonlarga nisbatan yuksak hurmat va ehtirom ifodasini bildiruvchi muhim madaniy qadriyatlardan biri hisoblanadi. Bu qoidalar malay oilalarining barqarorligini ta'minaydi. Yoshlar kattalarga so'zsiz itoat qilishni aynan mana shu kundalik kichik rituallar orqali o'rganadilar.

Kollektivizm va "Semangat kampung"

Malay jamiyatida shaxsiy manfaatlar hech qachon oila yoki jamoa manfaatlaridan ustun qo'yilmaydi. Bu holat sotsiologiyada kollektivistik madaniyatning muhim ko'rinishlaridan biri sifatida talqin etiladi. "Semangat kampong" ("qishloq ruhiyati") Malay jamiyatining muhim ijtimoiy-madaniy qadriyatlaridan biri hisoblanadi. U faqatgina qishloq hayotini angatmay, balki o'zaro ishonch, samimiyat, hamjihatlik hamda qo'shnining muammosiga befarq bo'lmaslik kabi insoniy fazilatlarini ifodalaydi. Malay xalqi shaharlashuv jarayonida, hatto Kuala Lumpur kabi yirik shaharlarda istiqomat qilgan taqdirda ham, ushbu jamoaviy birdamlik va yaqinlik muhitini saqlab qolishga intiladi. Eng qiziq faktik holatlardan biri Malay oilalarida uy eshiklarining ertalab ochiq turishi o'zaro ishonch va jamoaviy yaqinlik ramzi hisoblanadi. Mahalladagi bolalar erkin ravishda qo'ladishnilar uyiga kirib-chiqishi, ovqatlanishi yoki yordam so'rashi tabiiy hol sifatida qabul qilinadi. Shuningdek, qo'shnining farzandiga tarbiyaviy nasihat berishi, unga g'amxo'rlik qilish va nazoratda tutish butun jamoaning umumiy mas'uliyati sanaladi. Bundan tashqari kollektivistik qarashlarga ko'ra, oiladagi har bir insonning xulqi va qilgan ishlari butun oila shani shani va obro'siga ta'ir qiladi. Shu sababli biror a'zoning noto'g'ri harakati faqat uning shaxsiy xatosi sifatida emas, balki oiladagi dog' tushiruvchi holat sifatida ham emas, balki oilaga dog' tushiruvchi holat sifatida baholanadi.

“Gotong-royong” (o'zaro hashar)

“Gotong-royong” tushunchasi malay va indonez jamiyatlarida uzoq tarixiy jarayon davomida shakllangan o'zaro hamkorlik va birdamlik an'anasini ifodalaydi (Wilder, 2021). U faqatgina jamoat joylarini tartibga keltirish bilan cheklanmay, balki jamiyat a'zolarini yaqinlashtiruvchi muxim jtimoiy hamda iqtisodiy tizim vazifasini ham bajaradi.

• “Kenduri” (to'y va marosimlar) Malay xalqi orasida, ayniqsa qishloq hududlarida o'tkaziladigan to'ylarda restoran yoki maxsus xizmat ko'rsatuvchi guruhlar deyarli jalb qilinmaydi. Marosim boshlanishida bir necha kun avval qo'ni-qo'shnilar hamda qarindoshlar birlashib, katta hajmdagi taomlarni tayyorlaydi, chodir va kerakli jihozlarni o'rnatishda ishtirok etadi. Ushbu jamoaviy an'ana “Rwang” nomi bilan tanilgan. Bunday yordam uchun hech kim haq so'ramaydi, chunki har bir inson kelajakda o'z marosimida ham xuddi shunday ko'mak olishiga ishonadi. Natijada bu an'ana qarindoshlik rishtalari, o'zaro mehr-oqibat va samimiy munosabatlarning yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

• Malay jamiyatida biror oila musibatga uchrasa, masalan vafot holati, tez-tez sodir bo'ladigan suv toshqini kabi tabiiy ofatlar yuz bersa, mahalla aholisi darhol birlashib yordam ko'rsatishadi. “Gotong-royong” tamoyiliga asoslangan bu an'anada odamlar jabrlanganlarga oziq-ovqat, vaqtinchalik boshpana va boshqa zarur yordamlarni yetkazib uy-joylarni tartibga keltirish ishlarida ham faol qatnashadi. Bu holat ularning o'zaro mehr-oqibatli ekanini, insonlarni qiyin vaziyatda yolg'iz tashlab qo'ymasligini hamda muammolarni birgalikda yengishga inilishini ko'rsatadi.

Malay oilalarida muhim masalalar.

Ko'plab G'arb jamiyatlarida oila asosan ota-ona va farzandlardan tashkil topgan kichik birlik sifatida qaralsa, malay xalqi orasida qarindoshlik tushunchasi ancha keng ma'noga ega. Ular “Saudara-mara” tizimi asosida yashab, barcha yaqin qon-qarindoshlarni yagona katta oila sifatida qabul qiladilar. Malay oilalarida muhim masalarni hal qilishda jamoaviy maslahatlashuv muhim o'rin egallaydi. Farzand ta'limi, nikoh yoki mulk bilan bog'liq qarorlar ko'pincha faqat ota-onaning fikri bilan cheklanmaydi. Bunday vaziyatlarda oilaning Yoshi ulug' a'zolari boshchiligida qarindoshlar yig'ilib, har kimning mulohazasi inobatga olinadi.(Wilder, 2021) Bu an'ana islomdagi “Shuro” tamoyiliga asoslanib, oilada o'zaro hurmat va hamjihatlikni saqlashga xizmat qiladi. Mazkur an'ana o'zbek oilalarida ham ma'lum darajada uchraydi. Ko'plab hollarda muhim qarorlar ota-onalar hamda Yoshi katta oila a'zolari, ayniqsa bobo va buvilar bilan maslahatlashgan holda qabul qilinadi. Bu esa qarindoshlik rishtalarini yanada mustahkamlaydi.

“Anak-saudara” (jiyanlar) tushunchasi keng ma'noga ega bo'lib, amaki, amma, tog'a va xolalar jiyanlarga o'z farzandidek mehr va g'amxo'rlik ko'rsatadilar. Shu bois ota-onalar ish bilan band paytda bolalarni ko'pincha qarindoshlariga ishonib topshiradilar.

“Hari Raya Aidilfitri” (Ramazon hayiti) davrida esa dunyoning turli joylarida yashayotgan oila a'zolari “Balik Kampung” an'anasida o'z qishlog'iga qaytib, katta oilaviy davrada jam bo'ladilar. (Malaysian Governmet Portal, 2026).

XULOSA

Malay jamiyatida shakllangan an'analar, o'zaro hurmat tamoyillari va jamoaviy birdamlik oilaning mustahkamligini ta'minlovchi muhim omillar hisoblanadi. Ushbu

qadriyatlar oilada tartib va mas'uliyatni saqlashga, a'zolar o'rtasidagi hamjihatlikni kuchaytirishga hamda avlodan-avlodga o'tib kelayotgan milliy an'analarni asrashga xizmat qiladi. Shu sababli malay oilasi nafaqat qarindoshlik munosabatlari markazi, balki insonni turli hayotiy sinovlarda qo'llab-quvvatlovchi va jamiyat barqarorligini ta'minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Malaysian Government Official Portal – Family institution and well-being initiatives by LPPKN. <https://www.malaysia.gov.my>
2. Malay people: History, Culture, Family and Language <https://www.britannica.com/topic/Malay-people>
3. National University of Singapore (NUS) – Tham S.C., Malay Family Structure and the concept of relatives. <https://fass.nus.edu.sg>
4. Human Resource Management Academic Research Society – Gotong-royong as a social-traditional practice in Malay community (Academic Journal).
5. Cultural Atlas&SBS Australia – Exploring Malaysian Culture: Family Structure, Respect and Core Values
6. Exploring Malay Traditions: Family Structure, Respect and Core Values Silka: <https://culturalatlas.sbs.com.au> va <https://ling-app.com>
7. Tham, S. C. (1977). Malays and Modernization: A Sociological Interpretation. Singapore: Singapore University Press
8. Wilder, W. (2021). Communication, Social Structure and Development in Rural Malaysia: A Study of Kampung Kuala Bera. London: Routledge.